

## INFORMATIKA FANIDAN KASBIY TA'LIMDA EXCEL DASTURINI SOHALARDA QO'LLASH BO'YICHA TUSHUNCHALAR

**Raxmatova Sevara Solijonovna**

Qashqadaryo viloyati

Kitob tumani 1- sonli Kasb hunar maktabi

Informatika va axborot texnologiyasi fani o'qituvchisi

### **Kirish**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi axborot texnologiyalar asrida har bir sohada axborot kommunikatsiya vositalaridan hamda bank, moliya, buxgalteriya, iqtisodiyot, sohalarida Excel dasturidan unumli foydalanish haqidagi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi.*

***Kalit so'zlar:** Excel, moliya, axborot, yacheyka, varoq, interfeys, nisbiy, absolyut*

Bugungi kunda ko'plab matematik hisob kitoblardan moliya, buxgalteriya, iqtisodiyot va bank sohalarida foydalanish anchagina qiyinchilik tug'diradi. Bu vazifalarni osonlashtiruvchi "Excel dasturi" dan foydalanish ancha samaralidir. Masalan, Tayyor jadvaldagi o'nta ustunda berilgan sonni qo'shish uchun birinchi bo'lib, qaysi yacheykada natija hosil bo'lishini belgilab olamiz, so'ngra tenglik belgisi qo'yilib, formula kiritiladi. Birinchi son joylashgan yacheyka belgilanadi va qo'shish belgisi qo'yilib oxirgi son joylashgan yacheyka kiritiladi. Keyingi amal "enter" tugmasi tanlanib natijaga erishiladi.

MS Excel 2010 elektron jadvalida yangi interfeysi asosida **tasma** (ingliz tilida "Ribbon") deb nomlanuvchi va asosiy oynaning yuqori qismida joylashgan ko'p varaqli soha joylashgan.

MS Excel 2010 ning tasmaning har bir bo‘lagida muayyan vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan tugmalar majmuasi jamlangan:

□ **Главная** – jadvallardagi ma’lumotlarni kiritishga va tahrirlashga mo‘ljallangan;

□ **Вставка** – jadvalga biror rasm, diagramma kabi obyektlarni joylashtirishga mo‘ljallangan;

□ **Разметка страницы** - jadval varaqlarini bosmaga chiqarish uchun sahifalarning chegaralari va boshqa parametrlarini belgilash uchun mo‘ljallangan;

□ **Формулы** – jadvallardagi hisoblashlarni amalga oshiruvchi har xil formulalardan foydalanish uchun mo‘ljallangan;

□ **Данные** - jadvallarning ustun va satrlaridagi ma’lumotlarni filtrlash, saralash, nusxalarini ko‘paytirish, keraksizlarini yo‘qotish, tashqi axboratlarni kiritish;

□ **Рецензирование** – matn xatolarini tuzatish va hujjatlarni tahrirlash;

□ **Вид** – jadvallarni ekranda turlicha namoyish qilishga moslashtirish.

MS Excel 2010 ning standart varag‘i harflar orqali belgilanuvchi 16348 ustun va raqamlar orqali ifodalanuvchi 1 048 576 satr mavjud bo‘lib, ustunlar A harfidan boshlanib XFD bilan tugallanadi. Varaqdagi alohida olingan har bir katak o‘z nomiga va manziliga: **A3, C45** ega bo‘ladi.

**1-mashq.** **B1** katakka 231 ini, **B2** katakga 569 ni kiritib, ularning yig‘indisini **B3** da hosil qiling.

**Bajarish:** **B3** katakka = belgisini yozish orqali MS Excel 2010 kiritish rejimiga o‘tadi. So‘ngra sichqonchaning chap tugmasi **B1** katak ustida bosilganda, ushbu manzil **B3** da hosil bo‘ladi. Navbatdagi qadamda + kiritilib, keyin **B2** katak ustida yana sichqonchaning chap tugmasi bosiladi. Natijada **B3** da **B1+B2** yozuvi paydo bo‘ladi. **Enter** tugmasi bosilgandan so‘ng, bajarilgan amal natijasi **B3** da hosil bo‘lib, Formulalar satrida =**B1+B2** ifoda yoziladi.

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M
1		231											
2		569											
3		800											

Yuqoridagi kabi boshqa arifmetik amallarni bajarish mashq sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

MS Excel 2010 da ishlash jarayonida turli xatolar yuzaga kelishi mumkin. Ko‘p uchraydigan xatolar tavsifi xususida to‘xtalib o‘tamiz:

□ **ДЕЛ/0** – hisoblash formulasida 0 ga bo‘lish holati mavjud.

□ **ЗНАЧ!** – formulada mumkin bo‘lmagan ifodalar qatnashmoqda, masalan: kirill shriftida o‘zgaruvchilar ishlatilayotgan bo‘lishi mumkin.

Kasbiy ta’limni rivojlantirishda dars jarayonlari davomida Exceldagi asosiy funksiyalardan foydalanishni mukammal o‘rgatish muhim sanaladi. O‘quvchilar ham funksiyalarni amaliy qo‘llay olishni bilishi lozim. Bunda quyidagi metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi:

### “Nomini top” metodi

	Sonning kvadrat ildizini hisoblaydi.
	Matndan boshlang‘ich o‘rindan boshlab berilgan sondagi belgilarni ajratib oladi.
	Sonni darajaga ko‘taradi.
	Agar mantiqiy ifoda ning barchasining qiymati ROST bo‘lsa, funsiyaning qiymati ROST, aks holda funsiyaning qiymati YOLG‘ON.
	Bir nechta matni bitta matnga o‘tkazadi.
	Kichik butun songacha yaxlitlaydi.
	Son1,son2,... larning eng kichik qiymatni aniqlaydi.

1. СЦЕПИТЬ 2. МИН 3. КОРЕНЬ 4. ПСТР 5. СТЕПЕНЬ 6. И 7. ЦЕЛОЕ

### “НА”, “Yoq” o‘yini

1. Длстр(“Vatan”)=5 Ushbu funksiya natijasi tog‘ri. (**ha**)

2. Axborot hajmining eng kichik o'lchov birligi qilib bayt qabul qilingan.(yo'q)
3. ABS, ЗАМЕНИТ – funksiyalar matematik funksiya (yo'q)
4. O'zbekiston so'zida 11 bayt axborot mavjud.(ha)
5. Excel dasturi moliya va bank sohalarida qo'llaniladi.(ha)

### **Xulosa**

Shunday, qilib MS Excel yordamida ixtiyoriy arifmetik amallarni tez va oson usulda hisoblash imkoniyati mavjud. MS Excel elektron jadvali kalkulyatordan farqli bo'lgan kengroq ifodalarni hisoblashda umumlashtirish imkoniyati ham mavjud.